**Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti**
**60111400 - O‘zbek tili va adabiyoti**
**2-bosqich yo‘nalishi talabalariga 3-semestr uchun**
**« O‘zbek adabiyoti II» fanidan yakuniy nazorat savollari**
**Imtihon shakli: Yozma-og'zaki**

TASDIQLAYMAN
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
I.Madatov
2025-yil 14-oktabr

| Mavzu raqami | 1-QISM “OSON SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning kirish qismidan asosan nazariy savollardan iborat bo’ladi | 2-QISM “ODDIY SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 1-rejasidan asosan mulohazaviy savollardan iborat bo’ladi | 3-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 2-rejasidan asosan qoidalar, teoremalar, kabi savollardan iborat bo’ladi | 4-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR 2” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 3-rejasidan asosan tendensiyalar, paradigmalar, konsepsiyalar kabi savollardan iborat bo’ladi | 5-QISM “QIYIN SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning xulosa yani yakuniy qismidan asosan talabani mustaqil fikrlashga, mavzuni to’liq anglashga yo’naltiradigan savollardan iborat bo’ladi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Sharqda xamsachilik an’anasi va Navoiy “Xamsa”sining yaratilish tarixini izohlang. | Navoiy “Xamsa”sining jahon adabiyotida tutgan o‘rnini yoriting. | “Hayrat ul-abror” dostonining kompozitsion qurilishi va janr xususiyatini tushuntiring. | “Hayrat ul-abror”ning axloqiy-ta’limiy va ma’rifiy-falsafiy doston sifatidagi ahamiyatini bayon qiling. | “Farhod va Shirin” dostonining kompozitsion qurilishi, janr xususiyati va syujetini tahlil qiling. |
| 1 | “Farhod va Shirin”da komil inson tushunchasi qanday talqin etilgan? | “Layli va Majnun” dostonining syujet yo‘nalishi va kompozitsion xususiyatlarini tahlil qiling. | “Layli va Majnun”da ishq talqini qanday ifodalangan? | “Sab’ai sayyor” dostonida Bahrom shoh va oshiq obrazlarini izohlang. Shoh va darvesh hikmatining falsafiy yechimi nimada? | “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandar – adolatli hukmdor timsoli qanday yaratilgan? Shoirning hikoyanavislik mahoratini yoriting. |
| 2 | “Lison ut-tayr” falsafiy-majoziy doston sifatida: kompozitsion qurilishi va janr xususiyatlari. | “Lison ut-tayr”dagi asosiy timsollar, ularning majoziylik xususiyatlari va dostondagi hikoyalarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini tushuntiring. | “Mahbub ul-qulub” asarida shoirning komil inson va mukammal jamiyat haqidagi orzulari qanday ifodalangan? Asarning kompozitsiyasi va badiiyatini yoriting. | “Majolis un-nafois” asarining turkiy tilda yaratilgan birinchi tazkira sifatidagi ahamiyatini va davr adabiy muhitini aks ettirilishini izohlang. | “Mezon ul-avzon” va “Mufradot” asarlarining mazmuni va ilmiy ahamiyatini bayon qiling. |
| 2 | Navoiyning filologiyaga oid, tarixiy mavzudagi va epistolyar asarlarini sanab, ularni tavsiflang. | Boburning hayot yo‘li va ijodini o‘rganish tarixini bayon qiling. | Bobur o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi sifatida: uning adabiyotdagi o‘rnini izohlang. | Boburning shoir sifatida faoliyati va devonlari haqida gapiring. | Bobur lirik merosining janr xususiyatlarini (g‘azal, ruboiy, tuyuq, masnaviy) tushuntiring. |
| 3 | Bobur – adib va adabiyotshunos olim sifatida: “Boburnoma” hamda ilmiy asarlari haqida ma’lumot bering. | Bobur ijodining o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga ta’sirini baholang. | Muhammad Solihning hayoti va ijodi haqida ma’lumot bering. | “Shayboniynoma” dostonida tarixiy haqiqatning badiiy in’ikosini yoriting. | “Shayboniynoma”ning janr va kompozitsion xususiyatlari nimalardan iborat? |
| 3 | Xojaning hayoti va ijodi haqida so‘zlang. | “Miftohul adl” va “Gulzor” to‘plamlaridagi hikoyalarning mavzu ko‘lamini tushuntiring. | Xoja hikoyalarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini tahlil qiling. | XVII–XIX asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotni tavsiflang. | Xorazm, Qo‘qon va Buxoro xonliklarining yuzaga kelishini izohlang. |
| 4 | Xonliklar o‘rtasidagi munosabatlar qanday xarakterga ega bo‘lgan? | Abulg‘ozi Bahodirxonning hayoti va faoliyatini bayon qiling. | “Shajarayi turk” va “Shajarayi tarokima” asarlarining til va badiiyat xususiyatlarini yoriting. | Abulg‘ozi tarixiy asarlarida tarixiy shaxs va hukmdor obrazlari qanday talqin etilgan? | Mashrabning hayoti va ijodi haqida manbalar asosida so‘zlang. |
| 4 | “Devoni Mashrab”ning janr xususiyatlarini tushuntiring. | Mashrab shoir dunyoqarashining o‘ziga xos xususiyatlari va so‘fizm bilan aloqasini yoriting. | “Qissai Mashrab”larda shoir siymosi qanday talqin etilgan? | Huvaydoning hayoti va ijodiy merosida shoir dunyoqarashini izohlang. | Huvaydoning “Rohati dil” dostoni va poetik mahorat masalasini yoriting. |
| 5 | Qo‘qon adabiy muhitining o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rnini izohlang. | Umarxon – davlat arbobi, homiy va ijodkor sifatida tavsiflang. | Amiriyning hayoti va ijodini bayon qiling. | Amiriy devonining g‘oyaviy va badiiy mundarijasini tahlil qiling. | Gulxaniy hayoti va she’riyatining mavzu ko‘lamini yoriting. |
| 5 | “Zarbulmasal” asarining masal janri, kompozitsiyasi, mazmun-mohiyati va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini tushuntiring. | Uvaysiyning hayot yo‘li, ijodi va she’riyatini bayon qiling. | Uvaysiy she’riyatida shoir dunyoqarashi va zamon o‘rtasidagi ziddiyatlarning badiiy ifodasi qanday? | Uvaysiy dostonlarida ruhiyat tasviri qanday berilgan? | Mohlaroyim Nodiraning hayot yo‘li va ijodini yoriting. |
| 6 | Nodira she’riyatida ruhiyat tasviri va ishq talqinini tahlil qiling. | Avaz O‘tarning hayoti, ijtimoiy-adabiy muhitga munosabati va lirikasini tavsiflang. | Xorazm adabiy jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini izohlang. | Muhammad Rahimxon II ning adabiy muhit rivojidagi o‘rni qanday? | Feruzning adabiy merosini, uning shoh va shoir sifatidagi faoliyatini yoriting. |
| 6 | Feruz – maorif homiysi va taraqqiyotparvar sifatida tavsiflang. | Feruz lirikasining janrlarini va badiiy mahoratini tahlil qiling. | Shermuhammad Munisning hayoti, xorazmiy hayot va faoliyatiga doir ma’lumotlarni bayon qiling. | Munisning lirik shoir, tarjimon, tarixchi, murabbiy va xattot sifatidagi ijodini tavsiflang. | “Munis ul-ushshoq” devoni, “Firdavs ul-iqbol”, “Savodi ta’lim”, “Ravzat us-safo” asarlari haqida ma’lumot bering. |
| 7 | Ogahiyning hayoti va ijodini bayon qiling. | Ogahiyning “Ta’viz ul-oshiqin” devonini tavsiflang. | Devon debochasidagi ma’lumotlarni izohlang. | Ogahiy devonining janr tarkibini tushuntiring. | Ogahiy lirikasining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini tahlil qiling. |
| 7 | Ogahiy – tarixchi va tarjimon sifatida faoliyatini yoriting. | Nurmuhammad Nishotiyning hayoti, ijodiy merosi va o‘rganilish darajasi haqida so‘zlang. | Nishotiyning she’riyatini tavsiflang. | “Husni Dil” dostonining muqaddimasida muallif hayoti hamda dostonning yaratilishi bilan bog‘liq ma’lumotlarni yoriting. | “Husni Dil” dostonining qisqacha mazmuni, obrazlar tizimi, g‘oyaviy, badiiy va majoziylik xususiyatlarini tahlil qiling. |
| 8 | Sayyodiyning “Tohir va Zuhra” dostonining g‘oyaviy va badiiy xususiyatlarini tushuntiring. | Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” dostonining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini tahlil qiling. | XIX asrning 50-yillaridan boshlab Markaziy Osiyoda chorizm istilosi va uning salbiy va ijobiy oqibatlarini izohlang. | Davriy o‘zgarishlarning badiiy ijodda aks etishini misollar bilan yoriting. | Aminxo‘ja Muqimiyning hayoti va ijodiy merosini, janr xususiyatlarini bayon qiling. |
| 8 | Muqimiy she’riyatida an’ana va mahorat masalasini tahlil qiling. | Muqimiyning hajviyot va sayohatnomalarida hajv mahorati qanday namoyon bo‘lgan? | Furqatning hayot yo‘li, Toshkentdagi va chet ellardagi hayoti haqida so‘zlang. | Furqat she’riyati, masnaviylari va ularda ma’rifatparvarlik g‘oyalarining ifodasini tahlil qiling. | Furqatning publitsistikasi, romanlari, tarjima asarlari va Yorkentdagi faoliyatini yoriting. |
| 9 | XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotni tavsiflang. | Jadidchilik harakatining vujudga kelishi va g‘oyalarini bayon qiling. | Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va ijodini yoriting. | Abdulla Avloniyning hayoti va ijodini tahlil qiling. | Milliy ozodlik g‘oyalarining shakllanishi va ularning adabiyotdagi ifodasini izohlang. |
| 9 | O‘zbek matbuotining yuzaga kelishi va Yevropa tipidagi realistik adabiyotning vujudga kelishini tushuntiring. | Adabiyotda yangi tur va janrlarning paydo bo‘lishi va shakllanishini misollar bilan yoriting. | Hamza Hakimzoda Niyoziyning hayoti va ijodini bayon qiling. | Hamzaning adabiy merosi va ijodida ijtimoiy muhit aksini tahlil qiling. | Abdurauf Fitratning hayoti va ijodini yoriting. |
| 10 | Fitratning adabiy-madaniy merosi va publitsistikasini tavsiflang. | Fitratning adabiyotshunos olim sifatidagi faoliyati va ilmiy-nazariy qarashlarini tushuntiring. | Jadidchilik g‘oyalarining Fitrat ijodida ifodalanishini tahlil qiling. | “Munozara” va “Hind sayyohi” asarlarida mavzu, g‘oya va janrni yoriting. | “Abulfayzxon” asarining mavzusi, g‘oyasi va janr xususiyatini tahlil qiling. |
| 10 | Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodini bayon qiling. | Qodiriyning XX asr o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rnini yoriting. | “Uloqda” hikoyasining mavzusi, g‘oyasi va badiiy xususiyatlarini tahlil qiling. | “O‘tkan kunlar” romanining syujeti, kompozitsiyasi va obrazlar tizimini tahlil qiling. | “Mehrobdan chayon” romanining mavzusi, g‘oyasi va badiiy xususiyatlarini yoriting. |
| 11 | Nima uchun Abdulla Qodiriy birinchi o‘zbek romannavisi hisoblanadi? | “O‘tkan kunlar” romani atrofidagi bahs-munozaralarni bayon qiling. | Abdulhamid Cho‘lponning hayoti va ijodini bayon qiling. | Cho‘lpon ijodining milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rnini yoriting. | Cho‘lpon hikoyalarini (“Qurbonlik jaholat”, “Doktor Muhammadiyor”, “Turkistonda temir yo‘llar”, “O‘sh”) tahlil qiling. |
| 11 | Cho‘lpon she’riyatining mavzu va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini tavsiflang. | “Kecha va Kunduz” romanining poetikasini tahlil qiling. | Cho‘lpon ijodining XX asr adabiyotida o‘rganilishini yoriting. Davr ziddiyatlari uning ijodida qanday aks etgan? | G‘afur G‘ulomning hayoti va ijodini bayon qiling. | G‘afur G‘ulom o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri sifatida: uning adabiyotdagi o‘rnini izohlang. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 12 | G‘afur G‘ulomning 20–30-yillardagi ijodini tavsiflang. | G‘afur G‘ulom hikoyalarida satira va yumorning o‘rnini tahlil qiling. | Adibning publisistik qarashlari qanday? | G‘afur G‘ulom qissalarida davr shaxsi fojeasini yoriting. “Shum bola” asarining yumoristik xususiyatlarini tahlil qiling. | Oybekning hayoti va ijodini bayon qiling. |
| 12 | Adibning adabiy merosi haqida ma’lumot bering. | Oybek lirikasining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini tahlil qiling. | Oybekning 30-yillardagi ijodini tavsiflang. | Oybek dostonlarida ijtimoiy hodisalarning badiiy talqinini yoriting. | Oybek – romannavis sifatidagi faoliyatini tahlil qiling. |
| 13 | “Xamsa” dostonlarining mavzu, syujet va kompozitsiya jihatidan qiyosiy tahlilini bering. | “Farhod va Shirin” dostonidan olingan parchani g‘oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qiling. | “Layli va Majnun” dostonidagi obrazlar tizimini tahlil qiling. | “Lison ut-tayr” dostonidagi majoziy obrazlarni va ularning ramziy ma’nolarini izohlang. | Navoiy dostonlarida qo‘llangan badiiy tasvir vositalarini misollar bilan tushuntiring. |
| 13 | “Boburnoma”ning janr xususiyatlarini tushuntiring. | “Boburnoma”da zamondosh shoirlar va adiblar haqidagi ma’lumotlar qanday berilgan? | “Boburnoma”da adabiyotshunoslik qarashlari qanday ifodalangan? | “Boburnoma”ning til va uslub xususiyatlarini tahlil qiling. | “Boburnoma”ning o‘zbek adabiyoti va tarixshunosligidagi ahamiyatini baholang. |
| 14 | Bobur g‘azallarining mavzu ko‘lamini tahlil qiling. | Bobur ruboiylarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini yoriting. | Bobur lirikasida qo‘llangan vazn turlarini misollar bilan tushuntiring. | Bobur she’riyatida vatan va g‘urbat mavzusi qanday talqin etilgan? | Berilgan g‘azaldan parcha misolida vazn, janr va mavzu jihatidan tahlil o‘tkazing. |
| 14 | “Shayboniynoma”da tarixiy voqealar qanday badiiy talqin etilgan? | Dostondagi Shayboniyxon obrazini tahlil qiling. | “Shayboniynoma”ning tarixiy asar sifatidagi ahamiyatini bayon qiling. | Dostonning kompozitsiyasi va til xususiyatlarini yoriting. | Tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima nisbatini dostondan misollar bilan tushuntiring. |
| 15 | Qul Ubaydiyning hayoti va ijodiy merosini bayon qiling. | Qul Ubaydiy ijodining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini tahlil qiling. | Xoja hayoti va ijodini amaliy tahlil asosida yoriting. | Xoja hikoyalaridan birini mavzu va g‘oya jihatidan tahlil qiling. | Mashrab hayoti va ijodiga oid manbalarni qiyosan tahlil qiling. |
| 15 | Mashrab g‘azallaridan birini g‘oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qiling. | Huvaydo hayoti va ijodiy merosini yoriting. | Huvaydo she’riyatida shoir dunyoqarashi va poetik mahorat masalasini tahlil qiling. | XV–XIX asrlarda o‘zbek adabiyotida janrlar rivojini misollar bilan izohlang. | XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yangi o‘zbek adabiyotining shakllanishi va uning mumtoz adabiyotdan farqini tushuntiring. |